

TERGOV ISHLARINI OLIB BORISHDA ADVOKATNING ISHTIROKI

Mallayev Normamat Ramazonovich

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent,

Xushboqova Nigora G'ayrat qizi

Termiz davlat universiteti

Advokatlik faoliyati mutaxassisligi 1-kurs tinglovchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada advokatlarning tergov jarayonidagi roli o'rganilib, ularning himoya ostidagi shaxslar huquqlarini himoya qilish va axloqiy rioya etilishini ta'minlashdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Qonuniy vakil sifatida advokatlar ko'pincha dalillar to'plashdan tortib, guvohlar bilan suhbatlashish va xulosalarning huquqiy oqibatlarini baholashgacha bo'lgan tergovlarda faol ishtirok etadilar. Maqolada tergovning turli bosqichlarida, xususan, jinoiy kontekstlarda advokat ishtiroki zarurligini ta'kidlaydigan turli amaliy tadqiqotlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: advokat ishtiroki, huquqiy tekshiruvlar, himoya ostidagi shaxs huquqlari, axloqiy muvofiqlik, dalillar to'plash, tergov jarayonlari.

KIRISH

Yuridik mutaxassislarning hayotiy, lekin tez-tez e'tibordan chetda qoladigan vazifalaridan biri bu ularning tergovda ishtirok etishidir - ma'lumot to'plash va tahlil qilish kuchli ish yaratish uchun juda muhim bo'lgan vaziyatlar. Jinoiy ishlarda shaxslarni himoya qilishda, advokatlar tergov jarayonini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, huquqiy me'yorlar qo'llanilishini ta'minlaydi va mijozlar huquqlarini himoya qiladi. Advokatning ishtiroki va tergov jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'p qirrali. Qonuniy vakillar nafaqat dalillarni to'plash va asosiy guvohlarni so'roq qilish uchun mas'uldirlar, balki ular mijozlar va huquqni muhofaza qilish yoki nazorat qiluvchi organlar o'rtasida muhim vositachi bo'lib ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, advokatning tajribasi tergov yo'nalishiga sezilarli ta'sir

ko'rsatishi mumkin, chunki ular huquqiy oqibatlar bo'yicha maslahat beradi va turli tergov strategiyalari bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi. Ushbu maqola advokatlarning tergov jarayonida qo'shgan muhim hissalarini o'rganib chiqadi, ularning mas'uliyati, qiyinchiliklari va roliga xos bo'lgan axloqiy jihatlariga oydinlik kiritadi. Haqiqiy misollar va huquqiy tamoyillarni o'rganish orqali biz qonunchilik doirasida adolatli natijalarni ta'minlashda advokat ishtirokining muhimligini ta'kidlashni maqsad qilganmiz.

ASOSIY QISM

Tergov – jinoyat protsessida jinoiy ish bo'yicha dalillar yig'ish va tekshirish. Tergov turlari: dastlabki tergov va sud tergov. Tergov faoliyatini 3 xil yo'nalishdagi: prokuratura, Ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradilar. Ular tergov va protsessual harakatlarni mustaqil amalga oshiradilar. Asosiy vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish, aybi bo'lmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmaslikdan iborat. Tergovchi va uning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi JPKda bayon qilingan.

Dastlabki tergov - sudgacha tergov yo'li bilan dalil to'plash. Dastlabki tergov davomida jinoyat va jinoyatchini aniqlash, ishni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatli bo'lgan hamma holatlar bo'yicha dalillar yig'iladi va tekshiriladi, muayyan shaxsni jinoyatni sodir qilganlikda ayblovlari masalasi hal etiladi. Dastlabki tergov - bu jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan keyingi jinoiy jarayonning bosqichidir. Dastlabki tergov organlari sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlashga majbur: ayblanuvchining shaxsi; uning aybdorlik darajasi; jinoyatning motivi; etkazilgan zarar miqdori; jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan sabablar va shartlar va boshqalar. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat

xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi. Dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishlari mumkin.

Insoniyat adolatli hayot tarziga, umr yo‘llarida haqiqat qaror topishiga hamisha tashna. Sud-huquq tizimi esa jamiyatda qonun ustuvorligi, haqiqat barqarorligi va adolat barhayotligi uchun mas’uldir. Sudlar adolatli hukmlar chiqarar ekan, qonunlar ustuvorligini yo‘qotmaydi, haqiqat toptalmaydi, insonlar esa xo‘rlanmaydi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashning samarali institutlaridan biri bo‘lgan advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida tomonlar tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi. Xususan, advokatlarning professional faoliyatini bajarishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 4625 nafar advokat faoliyat yuritmoqda. Shundan 30 yoshgacha bo‘lganlari soni atiga 51 nafar, 50 yoshdan oshgan advokatlar soni esa 2619 nafarni tashkil qilmoqda. Umumiy hisobda har 7,6 ming aholiga bitta advokat to‘g‘ri kelmoqda. Advokaturaga ishga qabul qilish tartibini yanada soddalashtirish vazifasi Prezidentimizning 2023-yil 28-fevraldagi tegishli farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham belgilangan. Yangilangan Konstitutsiyada advokatura institutiga konstitutsiyaviy maqom berildi, ya’ni birinchi bor mamlakat Konstitutsiyasiga advokaturaga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi. Shu orqali, advokatlar faoliyati mustaqilligining konstitutsiyaviy

kafolatlari kuchaytirildi. Unga ko'ra, "Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi". Shubhasiz, bunday norma advokatlar faoliyati umumiy holatiga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.¹ Albatta, aytish kerakki, advokatning guvohlik immuniteti va uning faoliyatiga aralashish taqiqi advokatlik faoliyatiga oid qonunlar va protsessual qonunchilikda ham belgilangan. Lekin mazkur qoidalarining konstitutsiyaviy darajada o'rnatilishi ularning real ishlash imkonini oshiradi, chunki bu joyda gap konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi haqida bormoqda va bu qat'iy qoidalar jinoyat ishi yurituviga mas'ul bo'lgan shaxslar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga yuklatilib, ular advokatning mazkur kafolatlarini ta'minlab berishga majbur ekanliklarini anglatadi. Chunki sud-tergov amaliyoti shuni ko'rsatadiki, advokatlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ularning himoya pozitsiyasini olib borishida turli bevosita va bilvosita bosim holatlari aynan jinoyat ishi yurituvi jarayonida ko'proq kuzatiladi. Konstitutsiyaviy kafolat sharoitida esa advokat bunday xavflardan himoyalanaadi, o'z vakolatlari doirasida dadil harakatlanadi, har qanday tazyiq va bosimlardan xoli bo'ladi. Mustaqil bo'lgan, o'z himoya yo'nalishini mustahkam va barqaror olib boradigan advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam darajasi ham, albatta, yuqori bo'lishi tayin. "Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'sqinliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi". Bu kafolat borasida so'z yuritadigan bo'lsak, aytish muhimki, bu kafolatga bo'lgan ehtiyoj jinoyat protsessida advokat ishtiroki eng boshlang'ich nuqtasining o'zida – shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlangan zahotiyoq yuzaga keladi. Ya'ni shaxsning

¹ Янгиев, Г. (2022). Далилларни баҳолаш иштирокчиси сифатида адвокат фаолиятининг тортишувлик жараёнидаги ҳаракатларининг умумий таҳлили. Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи, 1(1), 158-162.

harakatlanish erkinligi cheklanishi bilan darhol unga advokat ta'minlanishi shart hisoblanadi. Shuningdek, shaxs birinchi so'roq o'tkazilishidan avval himoyachi bilan xoli uchrashishi qonunan kafolatlangan. Lekin shu bilan birgalikda ta'kidlash kerakki, tergov amaliyoti jinoyat-protsessual qonunida belgilangan mazkur huquqlarni ta'minlashda qator muammolar borligidan dalolat bermoqda.² Ko'plab advokatlarning asosiy e'tirozlaridan biri bu –tergov organlari tomonidan advokat va uning himoyasi ostidagi shaxsni ayblov yuzasidan birlamchi pozitsiyani shakllantirib olishga to'sqinlik qiluvchi turli vaziyatlarning yaratilishidir. Masalan, tergov hibsxonasi ichki tartib qoidalari vaji bilan uchrashuvning xoli bo'lishiga imkon bermaslik, turli bahonalar bilan uchrashuvlar vaqtini ortga surish yoki belgilangan uchrashuv joyini tez fursatda o'zgartirish, advokatlar xonasi yetishmasligi va boshqa advokatlar ham o'z himoyasi ostidagilar bilan uchrashishi kerakligi vajini aytib, uchrashuv vaqtini chegaralashga urinishlar va boshq. Bunday to'siqlar oqibatida advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan birlamchi va eng muhim bo'lgan muloqotni qila olmay, mustahkam himoya pozitsiyasini qo'ldan boy beradi, hibsdan saqlanayotgan shaxs esa jinoiy ta'qibning og'ir ruhiy bosimi ostida iqrorlik ko'rsatmalarini berish ehtimoli yanada ortadi. Aynan ana shunday vaziyatlarga chek qo'yish maqsadida ham “advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'sqinliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi” degan qat'iy konstitutsiyaviy qoida o'rnatilishi nihoyatda muhimdir. “Advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi. Advokatning kasbiy huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan muhofaza qilinadi”. Bunday qoida orqali davlat advokatlar xavfsizligiga tahdid bo'lgan holatlarda ularning himoyasini

² Закурлаев, А. К., & Бабабеков, Н. Д. (2024). ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВ ЖАРАЁНИДАГИ ЗИДДИЯТЛИ ВАЗИЯТЛАРДА МАХСУС БИЛИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ. Scientific Impulse, 2(20), 382-386.
SJIF: 5.051

ta'minlashni o'z zimmasiga oladi, ularning o'z kasbiy vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishlariga shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, advokat kasbiy vakolatlari doirasida dalillar to'plashi va ularni taqdim etishi jarayonining davlat tomonidan himoyalangani advokatning erkin va mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bu borada advokatning sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan muhofazalanishi alohida e'tirof etilgani nafaqat himoyasi ostidagi shaxsni, balki advokatning o'zini ham turli bosim va tahdidlardan, noqonuniy harakatlar ta'siridan himoya qiladi.³ Bosh Qomusimizga Advokatura institutining kiritilishi katta yutug'imiz bo'lishi bilan birgalikda, bir qator muammolar o'z yechimini topmasdan qolmoqda. Jumladan, advokat o'z himoyasi ostidagi shaxsning, sodir etgan jinoyati yuzasidan ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni to'plashi va uni sud muhokamasida isbot qilish orqali himoya qilishi ko'rsatilgan bo'lishiga qaramasdan, ushbu faoliyatning huquqiy asosi faqat O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunda belgilangan. Jumladan, qonunning 6-moddasida advokatning huquqlari ko'rsatilgan bo'lib, ushbu moddaning birinchi qismi uchinchi xatboshisida quyidagicha so'z yuritilgan: "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudga ko'rib chiqish chog'ida yoki ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda va boshqa vakolatli organlarda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek albatta baholanishi lozim bo'lgan dalillarni to'plash va taqdim etish..." [5]. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining normalarida esa boshqacha norma belgilangan. "Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu

³ Mamatkulov, K. G., & Abdurasulov, M. (2023). TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHDA ADVOKAT ISHTIROKI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 209-212.
SJIF: 5.051

qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi. Agar tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo'lsa, ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog'liq bo'lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo'lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkin". Advokatlar tomonidan to'plangan dalillar tergov harakatlari bilan emas balki, shaxslarning og'zaki bergan ko'rsatuvlar, tushuntirishlari va boshqa holatlar bo'yicha to'planadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqil advokatura samarali odil sudlovni ta'minlashning ajralmas shartidir. Zero, sud protsessida taraflarning huquq va erkinliklarini adolatli himoya qilish, ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sifatida ishtirok etayotgan har qanday shaxsning aybi bor yoki yo'qligini isbot qilishga advokatning ham birdek masulligi bugungi qonunchilik talabiga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatkulov, K. G., & Abdurasulov, M. (2023). TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHDA ADVOKAT ISHTIROKI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 209-212.
2. Закурлаев, А. К., & Бабабеков, Н. Д. (2024). ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВ ЖАРАЁНИДАГИ ЗИДДИЯТЛИ ВАЗИЯТЛАРДА МАХСУС БИЛИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ. Scientific Impulse, 2(20), 382-386.
3. Янгиев, Г. (2022). Далилларни баҳолаш иштирокчиси сифатида адвокат фаолиятининг тортишувлик жараёнидаги ҳаракатларининг умумий таҳлили. Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи, 1(1), 158-162.